

TA'LIM VA TARBIYANING O'ZARO ALOQASI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Saydaminova Soliha

O'zMPU 204-logo guruhi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim va tarbiya masalasi chuqur tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi, inson kamolotidagi o'rni hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilgan. Muallif ta'limni bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi vosita, tarbiyani esa inson ma'naviy olamini boyituvchi va uni barkamol shaxsga aylantiruvchi omil sifatida talqin etadi. Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimizning ilm-fan va tarbiya haqidagi fikrlari asosida pedagogik qarashlar ochib berilgan. Maqolada oila, ustoz va jamiyatning ta'lim-tarbiyadagi o'rni, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk qilib voyaga yetkazishning dolzarbligi alohida ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, barkamol avlod, oila tarbiyasi, ta'lim sifati, tarbiyaning ahamiyati, bilim va odob, ijtimoiy muomala, axloqiy fazilatlar, inson kamoloti, komil inson, intizom, tartib, tarbiya va ta'lim uyg'unligi, Ibn Sino, pedagogik qarashlar, Tadbiri manzil, Alisher Navoiy, Xamsa, Amir Temur, Temur tuzuklari, ilm va ma'rifat, xulq-atvor, o'zbek pedagogik merosi, ustoz, o'quvchi, estetik ideal, halollik, poklik, jamiyat taraqqiyoti.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ОБАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ: ТЕОИЯ И ПРАКТИКА

Аннотация: *В данной статье глубоко проанализированы вопросы образования и воспитания, их взаимосвязь, роль в развитии личности и значение для прогресса общества. Автор рассматривает образование как средство формирования знаний, умений и навыков, а воспитание — как фактор, обогащающий духовный мир человека и способствующий формированию всесторонне развитой личности. На основе взглядов таких великих предков, как Ибн Сино, Алишер Навои и Амир Темур, раскрываются педагогические идеи. В статье особо подчеркивается значение семьи, учителя и общества в процессе образования и воспитания, а также актуальность всестороннего духовно-нравственного развития подрастающего поколения.*

Ключевые слова: *образование, воспитание, всесторонне развитое поколение, семейное воспитание, качество образования, значение воспитания, знания и воспитанность, социальное взаимодействие, нравственные качества, развитие личности, совершенная личность, дисциплина, порядок, гармония воспитания и образования, Ибн Сино, педагогические взгляды, Тадбир аль-Манзиль, Алишер Навои, Хамса, Амир Темур, Кодексы Темура, наука и просвещение, поведение, узбекское педагогическое наследие, учитель, ученик, эстетический идеал, честность, чистота, прогресс общества.*

THE INTERRELATION OF EDUCATION AND UPBRINGING: THEORY AND PRACTICE

Annotation: *This article provides an in-depth analysis of education and upbringing, highlighting their interconnection, their role in human development, and their importance in the progress of society. The author interprets education as a means of forming knowledge, skills, and competencies, while upbringing is presented as a factor that enriches a person's spiritual world and shapes them into a well-rounded individual. The pedagogical views of great ancestors such as Ibn Sina (Avicenna), Alisher Navoi, and Amir Temur are explored through their thoughts on science and moral upbringing. The article emphasizes the vital roles of the family, teachers, and society in the educational process and underlines the relevance of raising a morally and ethically mature younger generation.*

Keywords: *education, upbringing, well-rounded generation, family upbringing, quality of education, importance of upbringing, knowledge and manners, social interaction, moral qualities, human development, perfect individual, discipline, order, harmony of upbringing and education, Ibn Sina, pedagogical views, Tadbir al-Manzil, Alisher Navoi, Khamsa, Amir Temur, Temur's Codes, science and enlightenment, behavior, Uzbek pedagogical heritage, teacher, student, aesthetic ideal, honesty, purity, social progress.*

Ta'lim - o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.[1] Ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar shaxs rivojlanishida muhim o'rin tutadi va bu jarayonda o'quvchining intizomli hamda tartibli bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Ta'lim sifati mamlakat miqyosida ham zarur masala bo'lib, uning yuksalishi jamiyat taraqqiyotiga kuchli turtki beradi. Bunday natijalarga erishish uchun esa korrupsiyani bartaraf etish va sohaga halol, sidqidildan yondashgan holda mehnat qilish muhim hisoblanadi.

Tarbiya - bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida bilim, hishayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga xos jihatlarni, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi.[2] Tarbiya jarayoni shaxs rivojlanishida dastlabki o'rinlarni egallab, har bir barkamol shaxsning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Insonning rivojlanishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi, yutuqlarga erishishi va yurtiga foyda keltirishi jarayonida ta'lim hamda tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

Zero, ta'lim insonni bilim va ko'nikmalarga ega qilar ekan, tarbiya esa ularni to'g'ri namoyon qilish, ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l tutish uchun keraklidir.

Ta'limsiz, ammo odobli inson nodon bo'lishi mumkin; tarbiyasiz, ammo bilimli inson esa odobsiz bo'lib qoladi.

Har ikki holatda ham inson shaxs sifatida mukammal bo'la olmaydi.

Shu sababli jamiyatimizda ta'lim va tarbiya tushunchalariga alohida e'tibor qaratish, ularni uyg'un holda qo'llash har bir fuqaroning burchidir. Tarbiyali inson jamiyatda o'zining odobi, muomalasi, o'zini tutishi bilan e'tibor va hurmat qozonadi.

Uning halolligi va pok qalbi uni borgan sari jamiyatda hurmatli shaxsga aylantiradi.

Natijada odamlar nafaqat unga mehr bilan qaraydi, balki uning fikrlariga ham quloq tutadi, so'zlariga e'tibor beradi. Biroq, agar insonda tarbiya bo'lsa-yu, bilim yetarli bo'lmasa, u noto'g'ri yoki puch fikrlarni ham ishonch bilan aytib, boshqalarni yo'ldan ozdirishi mumkin.

Shuning uchun ham har bir inson nafaqat tarbiyali, balki bilimli bo'lishi ham zarur. Aks holda, inson bilimli bo'lsa-yu, tarbiyasiz bo'lsa, odamlar uning ilmiga quloq tutishlari mumkin, biroq tarbiyasiga qarab unga amal qilish yoki qilmaslikka qaror qilishadi.

Yana bir muhim jihat: agar tarbiyasiz inson o'z bilimidan salbiy niyatlar yo'lida foydalansa, bu nafaqat o'ziga, balki atrofdagilarga ham jiddiy zarar yetkazadi. Bunday holat esa avvalo uni voyaga yetkazgan ota-onasi uchun katta sinovga aylanishi mumkin. Chunki ular farzandini katta qilayotib orzu-umidlar bilan yashagan bo'lishadi, ammo noto'g'ri yo'lga kirgan farzand bu umidlarni puchga chiqaradi. Agar bunga vaqtida to'siq qo'yilmasa, bunday inson jamiyatda salbiy namunaga aylanadi va shu orqali odamlar orasida "faqat ta'lim yetarli emas" degan noto'g'ri tasavvur ham shakllanishi mumkin.

Bu esa ta'limning qadriyat sifatidagi ahamiyatini so'ndirishi xavfini tug'diradi. Aslida, to'g'ri yo'naltirilgan ta'lim — bu taraqqiyot garovi. Ammo bu ta'lim tarbiya bilan uyg'unlashgan taqdiridagina mukammallikka erishadi. Tarbiyasiz ta'lim foydasiz bo'lishi mumkin, xuddi bilim asosida shakllanmagan tarbiya singari. Shu sababli ta'lim va tarbiya bir butunlikda olib borilgandagina, shaxs har tomonlama yetuk va barkamol inson sifatida voyaga yetadi.

Maktab va universitetlarda ustozning bilim berishi, albatta, muhim omil hisoblanadi. Biroq tarbiyasiz o'quvchiga ilm berish ancha mushkul kechadi. Shu sababli ko'pincha ustozlar darsga o'tishdan oldin o'quvchi yoki talabalarni darsga qanchalik tayyor ekanligini aniqlab oladilar. Agar ular darsga tayyor bo'lmasa,

o'qituvchi mashg'ulotning tashkiliy qismida ularni darsga tayyorlaydi, sinfda tartib-intizom o'rnatadi, e'tiborni darsga qaratadi. Bu jarayonning o'zi ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki biroz tarbiya beruvchi ham. Shuning uchun u o'quvchilarning nafaqat bilim darajasiga, balki ularning dars jarayonida o'zini qanday tutishiga, muomala madaniyatiga, hurmat va

e'tibor darajasiga ham jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Aks holda, o'quvchiga berilayotgan bilimlar hayotda amaliy ahamiyat kasb etmaydi. Chunki faqat ilm emas, balki ilmni to'g'ri yo'naltira olish — tarbiya orqali shakllanadi.

Ajdodlarimiz ilm, odob va adolat asosida taraqqiy etgan jamiyat qurishni orzu qilganlar. Ularning asarlari va hayoti orqali xalq manfaatiga xizmat qilish g'oyasi har doim ustuvor bo'lib kelgan. Alisher Navoiy o'zining "Xamsa" asarida ilm va

ma'rifatni eng oliy qadriyat sifatida ulug'lagan. U ilmni faqat bilim sifatida emas, balki insonni kamolot sari yetaklovchi vosita deb bilgan. Amir Temur esa "Temur tuzuklari" nomli mashhur asarida kuchli davlat asoslari, adolatli rahbar obrazlari va bilimli yoshlarning jamiyatdagi roli haqida to'xtalgan. Bu fikrlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan — aksincha, yosh avlodni ilmli, zukko va ma'naviy yetuk bo'lishga chorlovchi bebaho meros sifatida qadrlanadi. Bu asarlardan nafaqat ilm, balki teran tarbiya ham o'rganish mumkin. Zero, ularda bilim bilan bir qatorda insoniy fazilatlar — halollik, kamtarlik, sabr, adolat va xushmuomalalik kabi xulqiy qadriyatlar ham chuqur ifodalangan. Shuning uchun ham ajdodlar qoldirgan asarlar nafaqat aqlni, balki qalbni ham tarbiyalaydi.

G'arbda "Avitsenna" nomi bilan tanilgan buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino 57 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, o'z davrining yetuk ilm-fan vakili sifatida butun bashariyat tarixida chuqur iz qoldirgan. U kamolot sari intilar ekan, hayotdagi murakkab savollarga nafaqat ilmiy, balki chuqur ma'naviy yondashuv bilan javob bergan. Ibn Sino shunday deydi: "Insonning kamoloti — tarbiyasidadir." Ya'ni, uning fikricha, tarbiya insonning ongli ravishda hodisa va narsalarga munosabatini shakllantirishi, uni ijtimoiy jihatdan yetuk shaxsga aylantirishi kerak. U yosh avlodning ma'naviy olami, ruhiyati va tarbiyasiga katta e'tibor bergan. Kelajakda foydali, barkamol shaxs yetishib chiqishi uchun, avvalo, bolalikdan boshlab to'g'ri ta'lim-tarbiya berilishi zarurligini ta'kidlagan. Ibn Sinoning qarashlariga ko'ra, "Onglilik — inson baxtining asosi." [3] Har bir inson kuchli iroda sohibi, aqlan pishgan va jismoniy jihatdan sog'lom

bo'lmog'i lozim. Yoki bu jarayonni o'zida shakllantirishi kerak. Agar bu fazilatlar mavjud bo'lmasa, inson jamiyatda to'laqonli a'zo sifatida faoliyat yurita olmaydi. Uning tarbiya haqidagi qarashlariga ko'ra, axloqiylik insonda tug'ma bo'lmaydi, balki bu sifatlar tarbiya orqali shakllanadi. Ibn Sino tarbiyaning vazifasi — faqat o'z manfaatini emas, balki jamiyat, boshqalar manfaatini ham ko'zlovchi shaxsni shakllantirishdir. Buning uchun esa yoshlarda axloqiy poklik, do'stlik, iroda, e'tiqod va ma'naviy mas'uliyat tuyg'ularini kuchaytirish kerakligini ta'kidlaydi. Ibn Sino pedagogik qarashlarida oila muhitining o'rniga alohida urg'u beradi. Uning "Tadbiri manzil" asarida oila jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida e'tirof etilgan. Unga ko'ra, oila boshlig'i bola tarbiyasida nafaqat amaliy, balki nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Aks holda, yaxshi natijaga erishish qiyin. Chunki noto'g'ri tarbiya nafaqat o'z oilasiga, balki qo'shni, atrofdagi oilalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning fikricha, yaxshi tarbiya — oila farovonligining poydevori, barkamol inson tarbiyasi esa ota-onaning eng muhim burchi sanaladi. Ibn Sino bolaning tarbiyasida shaxsiy yondashuvni, ya'ni bola bilan yakka tartibda suhbatlashish usulini ma'qul ko'radi. Bunday suhbatlarda xalq og'zaki ijodi — ertaklar, maqollar, hikmatli so'zlardan foydalanishni, shu orqali axloqiy tushunchalarni bola qalbiga, ongiga, xulqiga singdirishni tavsiya etadi. Agar

bola suhbatni diqqat bilan tinglasa, undagi yaxshi xatti-harakatlar alohida ta'kidlanib, maqtov bilan yoki biror sovg'a bilan rag'batlantirilishi kerak. Kamchiliklar esa muloyimlik bilan ko'rsatilib, tuzatish yo'li tushuntirilishi lozim. Shunday qilib, Ibn Sinoning pedagogik qarashlari nafaqat o'z davri uchun, balki hozirgi zamon uchun ham nihoyatda dolzarbdir. U insonni mukammal shaxs sifatida shakllantirishda ta'lim va tarbiyani ajralmas jarayon sifatida ko'radi va bu ikki omil uyg'unlashgandagina barkamol jamiyat vujudga kelishiga ishonadi.

Odob (arabcha "adab" so'zining ko'pligi) – jamiyatda e'tirof etilgan xulq me'yori. U shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalab, o'zaro munosabatda, oila, mehnat jamoasida namoyon bo'ladi. Odob asosini axloqiy tamoyillar, me'yorlar, tarbiyalanganlik darajasi va estetik ideal talablari tashkil etadi. Odob kishining jamoada o'zini tutishi, odamlar bilan muomala qilishi, turmush tarzi, bo'sh vaqtini tashkil etishi, ichki va tashqi olami qanday bo'lishi lozimligiga oid qoidalarni (masalan, or-nomus, sharm-hayo, iffat, kamtarlik, xushmuomalalik) o'z ichiga oladi. Insonning diniy e'tiqodi uning odobli bo'lib kamol topishida muhim o'rin tutadi. Odob, birinchi navbatda, oila muhitida, qolaversa, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy foydali mehnat, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi. Odob – insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon, u bolalikdan shakllanadi.[4] Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni, ijtimoiy foydali mehnat, kundalik hayotiy faoliyat orqali inson odobni o'zlashtiradi. Bu — bolalikdan boshlanadigan uzluksiz jarayon bo'lib, inson yoshi ulg'aygani sayin uning odob darajasi, ijtimoiy muomalasi va madaniyati ham kengayib boradi. Agar insonga bolaligidan boshlab to'g'ri tarbiya va sifatli ta'lim berilsa, bu nafaqat uning shaxsiy kamoloti, balki jamiyat ravnaqi uchun ham katta hissa bo'ladi. Bunday inson ruhan yetuk, keng dunyoqarashli, xulq-atvori go'zal, sabrli va ijtimoiy jihatdan faol bo'ladi. Inson onasining qornidan tarbiya va ilmsiz odam sifatida dunyoga keladi. Ammo vaqt o'tishi bilan unga berilgan tarbiya va ta'lim uni barkamol, komil inson bo'lish sari yetaklaydi. Aksincha, tarbiya va ta'limdan mahrum bo'lgan shaxs na jamiyatda, na oilada, na o'z hayotida barqaror o'rinini topa oladi. U ko'p qiyinchiliklarga duch keladi va nihoyat, hayotiy tajribalar orqali ta'lim va tarbiyaning naqadar muhim ekanligini tushunib yetadi. Bu holat jamiyatimizda keng uchraydi. Odatda, ta'lim ololmagan ota-onalar farzandlari o'qib, savodli bo'lishlarini istab, ular uchun bor kuchi bilan mehnat qilishadi. "Farzandim mendan keyin qiynalmasin, men chekkan azoblarni u chekmasin", deydilar. Ammo afsuski, ba'zi farzandlar bu imkoniyatlarni qadrlamay, ota-onasining harakatlarini suiiste'mol qilishadi. Agar ular o'z vaqtida hushyorlik bilan harakat qilmasalar, kech bo'lishi mumkin. Chunki qancha kech harakat boshlansa, uning badali ham og'ir bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya – bu ikki tushuncha bir-birini to'ldiruvchi, ajralmas va uyg'un holda olib borilishi lozim bo'lgan muhim pedagogik jarayonlardir. Har qanday jamiyatning ravnaqi, inson kamoloti va millat rivoji, eng avvalo, sifatli ta'lim va chuqur tarbiya orqali ta'minlanadi. Maqolada qayd etilganidek, faqat bilimli, ammo tarbiyasiz inson to'laqonli shaxs bo'la olmaydi, xuddi tarbiyasi, ammo saviyasiz inson ham

jamiyatda yetakchi rol o'ynay olmaydi. Shu sababli, bu ikki yo'nalishni bir butunlikda olib borish – zamonaviy pedagogikaning asosiy talabi hisoblanadi. Ajdodlarimizning ibratli merosi, buyuk allomalarimizning ilm va tarbiya haqidagi qarashlari bugungi yoshlar uchun mustahkam yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilishi kerak. Ammo bu merosdan oqilona foydalana olish, yoshlarimizning o'zlariga bog'liq. Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur kabi buyuk siymolarning asarlari orqali yosh avlodga nafaqat bilim, balki hayotiy saboq, go'zal odob va axloqiy fazilatlar singdirilishi mumkin. Jamiyatning yuksalishi esa, ana shu komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazish bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, har bir pedagog, ota-ona va jamiyat a'zosi ta'lim bilan bir qatorda tarbiyaga ham doimiy e'tibor qaratmog'i, bu ikki omilni uyg'unlashtira oladigan shaxslar safini kengaytirish yo'lida to'xtamay harakat qilmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
2. Rahmonqulova N.X Pedagogika nazariyasi va tarixi: o'quv qo'llanma/ N.X. Rahmonqulova, K.O.Matnazarova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. – 116 b.
3. Ibn Sino “Tadbir ul-Manzil” risolasi
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent–2010